

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI**

“Tasdiqlayman”



Respublika o‘rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Andijon filiali direktori
G.A.Turaxodjaeva
ypmucor 2026 y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

“Zamonaviy jarroxlikda hamshiralik ishi”

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhлари uchun)

Ishchi o‘quv dasturi
(144 - kredit)

Andijon-2026 y

Tuzuvchilar:
G. Sodiqova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali o'quv uslubiy bo'lim boshlig'i

Fayzixodjayev.O

VKTBSH yuz jag' jarroxligi bo'limi jarroxi, Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali soatbay o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Rustamov.U.M

ADTI Urologiya kafedrasi dotsenti

Mamarizayev.A

ADTI Urologiya kafedrasi assistenti

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

“ 6 ” yanvar 2026 yil.

bayonnoma № 1

Uslubiy kengash raisi



Sodiqova.G.I

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

“ 7 ” yanvar 2026 yil.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi



G.A. Turaxodjayeva

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ishchi dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi dasturi "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlari (jarrohlik bo'limi hamshiralari)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" bo'yicha jarrohlik bo'limi hamshirasining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarni operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlarda parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini

ko'tarish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash. Shu bilan bir qatorda ularga jarrohlik ishining mohiyati, normativ- xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli akusherlik yordamini ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- jarrohlik ixtisosidagi statsionarlarda (bo'limlarda) shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya-gigiyenik, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish;
- jarrohlik sohasidagi yangiliklar, zamonaviy apparaturalar yordamida bemorlarni tekshirishga tayyorlash, parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari jarrohlik bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;

- oʻzida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yoʻlida aniq maqsad va puxta oʻylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish;
- jarrohlik hamshirasi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qoʻllay olish;
- jarrohlik boʻyicha bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni oʻrganish, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilish;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sogʻlom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni oʻz vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- kasbiy oʻsishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda oʻz ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;
- oʻz kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach koʻrsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Oʻquv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qoʻllash, jarrohlik boʻlimi hamshirasini aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali, sifatli tibbiy xizmat koʻrsatishni taʼminlaydi. Oʻquv dasturi amaliyotga asoslangan va muammolarga yoʻnaltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻquv materiallari va jarayonlar Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash tizimining va mutaxassislikning oʻziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. Oʻqish shakli:

- kunduzgi - oʻqish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / aʼnanaviy oʻqish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi: Mashgʻulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisidagi” Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrugʻi va filialning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar 8³⁰ da boshlanib, 13¹⁰ da tamom boʻladi. Tushlik – 30 daqiqa.

1.9. Oʻqish tugagandan soʻng beriladigan hujjat: oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1.Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- jarrohlik sohasidagi yangiliklar bilan tanishib borish;
- davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- shoshilinch holatlarda bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- operatsiyadan oldingi davrda bemorlarga tashxis qo'yishda zamonaviy tekshirish usullaridan foydalanish, o'preatsiyaga ruhan va jismonan tayyorlash;
- operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni parvarishlash, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalarni qo'lash;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ta'mirlash ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1.“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” malaka oshirish yo'nalishi ishchi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg'ulotlari				Attestatsiya
		Kredit	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.1.1	Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor	2	2	-		

	yo‘nalishlari.					
1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma’lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		
1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.3.1	Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar va infeksiion nazorat.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		
1.3.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi qoidalari.	2	-	2		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko‘rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		

1.5.3	Sogʻlom turmush tarzi yoʻnalishlari.Toʻgʻri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik.Asosiy sogʻlomlashtiruvchi mashgʻulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sogʻlom odamlarda hamda bemorlarda qoʻllash metodikasi.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1.	Modul: Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni Saqlash Vazirligi zamonaviy jarrohlik sohadagi meʼyoriy hujjatlar. Aseptika va antiseptika.	12	6	6		
2.1.1	Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni Saqlash Vazirligi Zamonaviy jarrohlik sohadagi soʻngi qaror va buyruqlar, meʼyoriy hujjatlar va islohotlar.	2	2	-		
2.1.2	Zamonaviy jarrohlik yordamini tashkil qilish va oʻrta tibbiyot xodimlarini etika va deontologiyasi .Tibbiyot xodimining shaxsiy gigiyenasi	2	2	-		
2.1.3	Xirurgik asbob-uskunalarining turlari, tuzilishining oʻziga xosligi, sterilizatsiyasi va saqlanishi.	2	-	2		
2.1.4	Zamonaviy jarrohlikda infeksiya tushishni oldini olish choralari. Aseptika.	2	2	-		
2.1.5	Bogʻlov materiallarini bikslarga joylash usullari, sterillikni nazorat qilishning zamonaviy usullari.	2	-	2		
2.1.6	Organizmga tushgan infeksiyaga qarshi kurash.Antiseptika va uning turlari.	2	-	2		
2.2	Modul: Zamonaviy jarrohlik sohada SOM (standart operatsiya muolajalari)ni amaliyotga samarali tadbiq qilish. Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Ogʻriqsizlantirish.	12	6	6		
2.2.1	Zamonaviy jarrohlik sohada faoliyat yuritayotgan oʻrta tibbiyot xodimlarni SOM (standart operatsiya muolajalari) amaliyotga samarali tadbiq qilish.	2	2	-		
2.2.2	Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda bemorlarni laborator va zamonaviy diagnostik tekshiruvlarga tayyorlash.	2	-	2		
2.2.3	Bemorlarni shoshilinch va rejali holatda	2	-	2		

	tekshirish usullari.					
2.2.4	Narkoz turlari va bosqichlari.	2	2	-		
2.2.5	Operatsiyadan keyingi davr.	2	2	-		
2.2.6	Umumiy va mahalliy og‘riqsizlantirishdan keyin bemorlarni parvarishlash.	2	-	2		
2.3	Modul: Qon ketish sindromi. Qon ketishni to‘xtatish. Infuziya va transfuziya.	6	2	4		
2.3.1	Qon ketish sabablari, turlari, belgilari, darajalari.	2	2	-		
2.3.2	Infuziya va transfuziya. Qon quyish usullari va metodlari.	2	-	2		
2.3.3	Bemorga qon quyilgandan keyin hamshira parvarishi. Veneseksiya va venepunksiya.	2	-	2		
2.4	Modul: Yurak, qon tomir kasalliklari va yurak jaroxatlarida hamshiralik ishi.	6	2	4		
2.4. 1	Yurak, qon tomir va yurak nuqsoni kasalliklari, yurak transplantatsiya amaliyotini o‘tkazishga ko‘rsatma va moneliklarni o‘rganish.	2	2	-		
2.4. 2	Bemorlarga jarrohlik amaliyotini o‘tkizishda laborator va zamonaviy diagnostik tekshiruvlarini tayyorlash va o‘tkazish.	2	-	2		
2.4. 3	Evlo terapiya o‘tkazishda hamshiralik yordami va keyingi parvarishi.	2	-	2		
2.5	Modul: Shikastlangan va jarohat olgan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Shikastlangan va jarohatlangan bemorlarga turli bog‘lamlar qo‘yish.	14	6	8		
2.5. 1	Shikastlar tasnifi. Bemorlarni travmatologik tekshirishning xususiyatlari.	2	2	-		
2.5. 2	Kalla-miya, ko‘krak qafasi, umurtqa pog‘onasi va chanoq suyaklari shikastlarida bemorlarni parvarish qilish.	2	2	-		
2.5. 3	Bemorlarni tekshirish va davolashning zamonaviy usullari.	2	-	2		

2.5. 4	Shikastlangan va jarohat olgan bemorlarga yumshoq va qattiq bog'lamlar qo'yish.	2	-	2		
2.5. 5	Zamonaviy Kangda Cast bog'lamlarini qo'yishda ishtirok etish va bemorlarni parvarish qilish.	2	-	2		
2.5. 6	Qoqshol, gazli gangrena, quturish kasalliklarini oldini olish.	2	2	-		
2.5. 7	Kuyish, Sovuq olish. Elektrotravma. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, transportirovka qilish, bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.	2	-	2		
2.6	Modul: Yallig'lanish sindromi. Mahalliy va umumiy infeksiyalarda hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.6. 1	Xirurgik infeksiya tasnifi, tarqalish yo'llari, yallig'lanishning asosiy mahalliy belgilari.	2	2	-		
2.6. 2	O'tkir va surunkali xirurgik infeksiyalarda bemorlarni tekshirish, davolash va parvarish qilish.	2	-	2		
2.6. 3	Jarrohlik bo'limlarida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha tadbirlar.	2	-	2		
2.7	Modul: "O'tkir qorin og'rig'i" sindromi. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari va davolash, hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.7. 1	"O'tkir qorin og'rig'i" sabablari, klinik belgilari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari	2	2	-		
2.7. 2	Qorin bo'shlig'i a'zolarining ochiq va yopiq shikastlari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, kasalxonaga transportirovka qilish.	2	2	-		
2.7. 3	O't yo'llari va o't pufagi, appenditsit kasalliklarida zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, shoshilinch yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.7. 4	Dinamik va mexanik ichak tutilish turlari, sabablari, klinik belgilari, zamonaviy tekshirish usullari va davolash.	2	2	-		
2.7. 5	"O'tkir qorin og'rig'i" bilan kasallangan	2	-	2		

	bemorlarni parvarish qilish va ovqatlantirish xususiyatlari.					
2.7.6	Proktologik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari, shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishi	2	-	2		
2.8	Modul: O'smalar sindromi.Bemorlarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolash, hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.8.1	O'smalar. Havfli va havfsiz o'smalar haqida tushuncha.	2	2	-		
2.8.2	Onkologik bemorlarni turli zamonaviy laborator diagnostik tekshiruvlarga tayyorlash.	2	-	2		
2.8.3	Onkologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.	2	-	2		
2.9	Modul: Siydik ajratish faoliyatining buzilish sindromi.Zamonaviy tekshirish usullari, buyrak transplantatsiya amaliyotidan keyin hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.9.1	Urologik kasalliklarni etiologiyasi, klinik belgilari, shoshilinch yordam ko'rsatish.	2	2	-		
2.9.2	Qovuq va siydik chiqarish kanalining tug'ma nuqsonlari.	2	2	-		
2.9.3	Laparoskopik ureterolitotomiya jarrohlik amaliyotiga tayyorlash.	2	-	2		
2.9.4	Bemorlarni tekshirishning zamonaviy usullari (ultratovushli tekshirish, multiskaner kompyuter tomografiya, rentgenografiya, endoskopiya)ga tayyorlash.	2	-	2		
2.9.5	O'tkir siydik tutilishning sabablari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam.	2	2	-		
2.9.6	Urologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.	2	-	2		
2.10	Modul: Ko'z kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish, hamshiralik parvarishini olib borish.	6	2	4		
2.10.1	Ko'rish a'zolari va ko'zning qo'shimcha qismlari kasalliklari haqida umumiy tushuncha.	2	2	-		
2.10.2	Ko'z soqqasining mexanik jarohatlari,	2	-	2		

	kimyoviy, termik, elektr ta'siridan kuyishida shoshilinch yordam ko'rsatish.					
2.10.3	Bemorlarni turli oftalmologik operatsiyalarga tayyorlash. Ko'z kasalliklarida hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.11	Modul: Quloq, tomoq va burun a'zolari kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari, hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.11.1	Otorinolingolik kasalliklarining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, rivojlanishi.	2	2	-		
2.11.2	Otorinolingolik kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.11.3	Tashqi, o'rta va ichki quloq kasalliklarini tekshirish usullarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar, bemorlarni davolash va hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.12	Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
2.12.1	Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari.	2	2	-		
2.12.2	Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari	2	-	2		
2.12.3	Terminal holatlarda birinchi yordam ko'rsatish. Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi	2	-	2		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
3.1	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tuman (shaxar) darajasida ambulatory va stasionar sharoitida ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari	4	-	-	4	
4.0	Attestatsiya	4	-	-	-	4
	Jami	144	60	76	4	4

3.2.1 O'quv modullar tasnifi
1.0. Kasbiy rivojlantirish moduli.

1.1Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati 4 kredit

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikmalar	PF-158- “O‘zbekiston 2030” strategiyasi mazmun mohiyati haqida Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima? Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘zgarishlar. Misol: elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish. Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Misol: noto‘g‘ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to‘lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirish. Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi. 2. Kompetensiya tushunchasi Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka majmui. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo‘yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish Sog‘liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish B) Amaliy ko‘nikmalar Sog‘liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga

	olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targʻib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga oʻrgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sogʻliqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	1. Sovgʻalar va ishbilarmonlik mehmondoʻstligi bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar: • Qachon sovgʻa berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat oʻrtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovgʻalarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovgʻa yoki mehmondoʻstlik orqali taʼsir oʻtkazish holatlari bilan bogʻliq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovgʻa qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. 2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari: • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suisteʼmol qilish, manfaatlar toʻqnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. 3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik: • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga koʻra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish, tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qoʻllanilishini; • Xizmat tekshiruv, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini. 4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik: • Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bogʻliq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini

	suiste'mol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1.Sovg'alar va mehmondo'stlik bilan bog'liq xatarlarni baholash va to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi • Qonuniy va noqonuniy sovg'a/mehmondo'stlik o'rtasidagi farqni anglash; • Sovg'a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. 2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o'rnatish ko'nikmasi • O'zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Kontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko'ra bilish; • Tashqi ta'sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. 3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko'nikmasi • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida "shaxsiy munosabatlar" emas, qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo'llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. 4. Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabardor qilish ko'nikmasi • Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo'lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish. 5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko'nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;
O'quv moduli mazmuni:	Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni

shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish.

1. Korrupsiya tushunchasi

– Korrupsiya nima ekanligi, uning ta’rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari;

– Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste’mol qilish, manfaatlar to‘qnashuvi va h.k.

2. Milliy qonunchilik asoslari

– “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy normalari;

– O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar;

– Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni.

3. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

– Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari;

– Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o‘rni;

– Ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari.

4. Huquqiy madaniyat va ong

– Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha;

– Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas’uliyatining ahamiyati;

– Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati.

5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash

– Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish;

– Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash;

– Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi

– Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste’mol qilish, dori vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar.

2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari

– Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi.

3. Ichki va tashqi omillar

– Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar;

– Aholining korrupsiyaga nisbatan murosali munosabati.

4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari

– Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari;

	– Ma'muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo'shatish, ogohlantirish.
Adabiyotlar: 1. PF-158-son 11.09.2030 ."O'zbekiston-2030"strategiyasi 2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008. 3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453. 4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://www.lex.uz/acts/111460. 5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/97664. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli Qarori // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3105125. Elektron ta'lim resurslari -www.minzdrav.uz– www.gov.uz www.press-service.uz www.parlament.gov.uz - www.uza.uz - www.cbu.uz- - www.lex.uz - www.ziynet.uz	

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishini bilish Elektron sog'liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish Ma'lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari B) Amaliy ko'nikmalar Elektron sog'liqni saqlash tizimidan samarali

	foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy konsultatsiya o'tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma'lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo'yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina konsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rnini; • sog'liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini; • ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • hozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
O'quv moduli	• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika

yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	havfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.
O'quv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y

2.Aminov S.M "Axborot kommunikatsion texnologiyalar" 2020 y

3.Tursunov, Nazarov "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2021 y

4.Ayupov Ravshan Hamdamovich "Ta'limda axborot texnologiyalari" TDPU, 2020 y

5. Informatika asoslari

Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov

Yuklab olish:

Informatika asoslari PDF

(https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com)

6. Informatika va axborot texnologiyalari

Muallif: Z.S. Abdullayev

7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi

Yuklab olish:

Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com)

8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar

Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov

9. Informatika (klassik darslik)

Muallif: N.V. Makarova

Elektron ta'lim resurslari:

1. DMED haqida asosiy tushuncha (**Kapital.uz**)
2. O'zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) (**soff.uz**)
2. DMED bo'yicha test savollar (**Hujjat24**)

1.3.Modul: Infektsion nazorat

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Infektsion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko'nikma va mas'uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: □ Bilimlar: • Infektsion kasalliklar yuqish yo'llari • Sanitariya-epidemiologik me'yorlar • Dezinfektsiya va sterilizatsiya turlari □ Amaliy ko'nikmalar: • To'g'ri qo'l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash □ Mas'uliyat va xulq-atvor: • Qoidalarga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• sanitariya qoidolari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infektsion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSga oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalash tamoyillarini.

O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o‘tkaziladigan chora-chadbirlar yig‘indisini; • o‘ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibini;
O‘quv moduli mazmuni:	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherlarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o‘ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenez, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalanish tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMlarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y. 2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek. Res. davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari” 3. V.N. Turaqulov, X.A. Raxmatova, N.A. Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi” O‘quv qo‘llanma. Navoi nashriyot. 2019yil. 4. F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020 5. S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400 6. COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart. 7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti → rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar 8. Ziyonet → bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar Elektron ta’lim resurslari: http://www.edu.uz http://www.pedagog.uz www.tma.uz, www.lex.uz	

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Nazariy bilimlar: sterilizatsiya usullarining fizik-kimyoviy asoslarini bilish • Amaliy ko'nikmalar: uskunalarni to'g'ri ishlatish va nazorat qilish • Xavf-xatarni baholash: issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash • Me'yoriy hujjatlarga rioya qilish: sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik: nosozlik yoki avariya holatida to'g'ri harakat qilish 3. Zamonaviy yondashuvning ahamiyati Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish: • infeksiya xavfini kamaytiradi, • ish unumdorligini oshiradi, • xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta'minlaydi, • sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Sterilizatsiya sohasi bo'yicha mavjud bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish Sterilizatsiya va uning turlarini. • Gazli sterilizatsiya usullarini • Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini • Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lishi
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni, • tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini, • texnika xavfsizligini, • tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.

O'quv moduli mazmuni:	Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o'qitish va o'rgatish. Mashg'ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari xaqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha ma'lumotlar berib borish. Asosiy diqqat va e'tiborni sterilizatsiya ishlarini to'g'ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo'lishini ta'minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to'g'ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to'la amal qilish.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.K.F.Melibayeva,G.F.Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo'llanma.Qo'qon.2025yil. 2.V.N.Turaqulov,F.A.Qurbonov."Xirurgiyada xamshiralik parvarishi"O'quv qo'llanma.Navoi nashriyot.2019 yil. 3. G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Bug'li sterilizator(Avtoklav)"Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent.2024 yil. 4.G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Plazmali sterilizator" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil. 5.Elektron ta'lim resurslari: 1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari • Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari Muallif: Arzimatova Ra'no Pardaboy qizi (JournalSS) 2. Aseptika va antiseptika asoslari • Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo'llanishi Mualliflar: ◦ Sh.Ya. Radjabov ◦ G.R. Kadamova ◦ M.M. Olimova (pedagogs.uz) 3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya • Mikrobiologiya va virusologiya • Mualliflar: OTM professor-o'qituvchilari (NamDU) (www.namdu.uz) 4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya • Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari (book.bsmi.uz) 5. Sterilizatsiya usullari va qo'llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya • Sterilizatsiya usullari va ularning qo'llanilishi • Muallif: Shoda Team (Hujjat24)	

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Jismoniy faollik va sog'lom turmushda kompetensiyalar Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Sog'lom turmush qoidalari bo'yicha bilimga ega bo'lish • Shaxsiy sog'liqni baholay olish va nazorat qilish • To'g'ri ovqatlanish rejasini tuzish ko'nikmasi • Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish • Sog'lom hayot tarzini boshqalarga targ'ib qila olish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini; • sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta'sir etuvchi omillar: • irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni; • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni; • to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to'g'ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning • salomatlikka ta'sirini; • zararli odatlarning organizmga ta'sirini; • tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini • jalb etishni; • sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni;
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo'llarini; • jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib

	borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
O'quv moduli mazmuni:	Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'rikni tashkil etish va aholini jalb etish.
Tinglovchilarni mustaqil o'zlashtirishi uchun adabiyotlar ro'yxati: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrda "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori. 2. VMQ 2025 y. 6-may № 297 "Sog'liqni saqlash va ta'lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan "Toza qo'llar" dasturi. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori. 4. SSV buyrug'i № 97, 2024 y, 27 mart. "Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlari samarali o'tkazish, aniqlangan kasalliklar bo'yicha manzilli sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish" to'g'risida. 5. SSV ning № 175-buyrug'i, 2025 yil, 20-iyun. "Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 6. Sh. Zokirxo'jayev, A. Gadoyev, M. Turimbetova "Dietologiya" 2023 yil 7. A. Gadayev, L. Musadjanova, N. Pirmatova, N. Mo'minova "Shifobaxsh taomlar" 2017 yil. 8. Sh. Qurbonov, A. Qurbonov "To'g'ri ovqatlanish qoidalari" 2014 yil 9. Elektron таълим ресурслар: 1. inlibrary.uz – sog'lom turmush maqolalari 2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar 3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar 4. yuz.uz – sog'lom turmush dasturlari 5. hujjat 24.uz – o'quv materiallar	

2.0. Mutaxassislik fanlar

- D. Vaksina bilan davolash.

38. Jarohat atrofidagi o'lgan to'qimalarni kesib olib tashlash usuli antiseptikaning qaysi turiga kiradi?

- A. *mexanik;
- B. Biologik;
- C. Kimyoviy;
- D. Fizikaviy.

39. Sterillash deb nimaga aytiladi?

- A. *Mikroblar va ularning sporalarini yo'qotish usuli;
- B. Operatsiya jarohatiga tashqi muhitdan mikroblarni tushirmaslik;
- C. Jarohatga tushadigan mikroblarni oldini olish;
- D. Jarohatdagi mikroblarni kimyoviy dorilar yordamida yo'qotish.

40. Sterillashning necha xil usullari mavjud?

- A. *6 xil;
- B. 5 xil;
- C. 3 xil;
- D. 4 xil.

41. Qaysi usulda jarroh qo'llarini 0,5% li novshadil spirti solingan 2 ta idishda yuvadi?

- A. *Spasokukotskiy-Kochergin usuli;
- B. Alfeld usuli;
- C. Bruno usuli;
- D. Zabludovskiy usuli.

42. Operatsiya maydoniga ishlov berishda qaysi antiseptik qo'llanilmaydi?

- A. *formalin;
- B. yodning 3% li spirtli eritmasi;
- C. yodonat;
- D. xlorgeksidin.

43. Qaysi moddaning suyuqlanishi avtoklavda haroratni 110-120.0 bo'lganligini tasdiqlaydi?

- A.*oltingugurt poroshogi;
- B.Simob;
- C.Kumush;
- D.Xloramin.

44. Operatsiya maydoniga qaysi usulda ishlov beriladi?

- A.*Filonchikov-Grossix usulida;
- B.Bruno usulida;
- C.Spakokutskiy-Kochergin usulida;
- D.Alfeld usulida.

45. Qaysi preparat mahalliy qo'llanilganda anaerob infeksiyaga qarshi kuchli ta'sir qiladi?

- A.*3% li vodorod peroksidi;
- B.Streptotsid;
- C.Yod;
- D.Sulema.

46. Antibiotiklar mikroblarga nisbatan qanday ta'sir ko'rsatadi?

- B.*Bakteriostatik va bakteriotsid;
- C.Sporalarni erituvchi;
- D.Dezinfeksiyalovchi;
- E. Sezgirlikni yo'qotuvchi.

47. Antibiotiklarni qanday nojo'ya ta'siri bor?

- A.*Kandidoz rivojlanadi;
- B.Qon yaratilishi buziladi;
- C.Uyqu buziladi;
- D.Bosh aylanadi.

48. Aseptika-bu...

- A. Yara infeksiyasiga qarshi kurash;
- B* .Infeksiyani yaraga tushishdagi profilaktikasi;
- C. Jihozlarni dezinfeksiya qilish;
- D. Jihozlarni sterilizatsiya qilish;

49. Antiseptika-bu...

- A. Yara infeksiyasiga qarshi kurash;
- B. Infeksiyani yaraga tushishdagi profilaktikasi;
- C. Jihozlarni dezinfeksiya qilish;
- D. Jihozlarni sterilizatsiya qilish;

50. Operatsiyadan oldin qo'llar 1 daqiqa davomida qanday yuviladi?

- A.Gibitan;

- B. *Pervomur (C-4) ;
- C. Nashatir spirti;
- D. Yodonat.

7-variant

1. Aseptikaga asos solgan olim...

- A. Bergman;
- B. Lister;
- C. Dyakonov;
- D. *Paster

2. Antiseptikaga asos solgan olim...

- A. Pirogov;
- B. Paster;
- C. *Lister
- D. Landshteyner

3. Dezinfeksiya-bu...

- A. Jarohatga mikroob tushishni oldini oluvchi chora tadbirlar majmuasi;
- B. Mikroorganizmlarni yo'qotish hamda spora hosil qiluvchilarni;
- C. Patogen mikroblarni yo'qotish;
- D. *Tibbiyot asboblarini yuzalaridan mikroorganizmlarni yo'qotish.

4. Sterilizatsiya – bu..

- A. Jarohatga mikroob tushishini oldini oluvchi chora tadbirlar majmuasi;
- B. *Mikroorganizmlarni yo'qotish hamda spora hosil qiluvchilarni;
- C. Patogen mikroblarni yo'qotish;
- D. Tibbiyot asboblarini yuzalaridan mikroorganizmlarni yo'qotish.

5. Jihozlarni dezinfeksiya qilish maqsadida... qo'llanilmaydi.

- A. Avtoklavlash
- B. Qaynatish
- C. *Paroformalinli kameraga joylashtirish;
- D. Quruq-issiqlik shkafiga joylashtirish.

6. Jihozlarni fizik sterilizatsiyasiga... kiradi.

- A. *Avtoklavlash;
- B. 70% li etil spirtiga bo'ktirish;
- C. 6% li periks vodorodga bo'ktirish;
- D. Formalin bug'lari bilan ta'sir qilish;

7. Operatsiya oqliklari ...rejimda sterilizatsiya qilinadi.

- A. *180°-60 min.
- B. 120°-1,1 atm .-45 min.

- C. 160°-180 min.
- D. 132°-2,0 atm. -20 min

8. Rezina va plastmassalarni ...rejimida sterilizatsiya qilinadi.

- A. 180°-60 min.
- B. *120°-1,1 atm. -45 min
- C. 160°-180 min.
- D. 132°-2,0 atm.-20 min

9. 6% li vodorod peroksidi bilan jihozlarni xona xaroratida ximik sterilizatsiya qilish vaqti?

- A. *1 soat
- B. 3 soat
- C. 6 soat
- D. 40 min.

10. Quruq-issiqlik bilan jihozlarni sterilizatsiya qilishning asosiy rejimi

- A. 120°-40 min.
- B. 180°-3 soat
- C. 200°-40 min.
- D. 180°-1soat

11. Asboblarni sterilizasiyadan oldingi ishlovi sifatining sinamasi:

- A. *Benzidin;
- B. Azopiram;
- C. Benzoy;
- D. Nikotinamid.

12. Endoxirurgiya uchun asboblarni qayerda sterillanadi?

- A. *Avtoklavda;
- B. Quruq issiqlik shkafida;
- C. Sovuq uslubda;
- D. Qaynatish bilan.

13. Lazerni jarrohlikda qo'llanishi qanday aseptikaga kiradi?

- A. Mexanik;
- B. *Fizik;
- C. Biologik;
- D. Ximiyaviy.

14. Antiseptikaning biologik usulini ko'rsating:

- A. *Giperimmun plazma;
- B. Jarohatlarni birlamchi tozalash;
- C. Jarohatni drenajlash;
- D. Vodorod peroksidini qo'llash.

15.Narkoz-nafas apparati dezinfeksiya qiliuvchi eritma:

- A.96%li etil spirtida 10 daqiqa;
- B.10%li formaldegidda 10 daqiqa;
- C.1%li xloraminda 60 daqiqa;
- D.3%li vodorod peroksidida 60 daqiqa.

16.Aseptika qoidalariga rioya qilmaslik qanday asoratga olib keladi?

- A.Havo emboliyasiga;
- B.Allergik reaksiyaga;
- C.*Abssessga;
- D.Lipodistrofiyaga.

17.Operation blokni tozalash bir kunda necha marta olib boriladi?

- A.1 marta;
- B.2 marta;
- C.Umuman tozalanmaydi;
- D.*Talabga ko'ra 2-3 martadan kam emas.

18.10%li xlorli ohal eritmasini tayyorlash uchun kerakli ashyo:

- A.9,9 l suvga 100 gr xlor ohagi;
- B.5 l suvga 1 kg xlor ohagi;
- C.*10 l suvga 100 g xlor ohagi;
- D.5 l suvga 100 gr xlor ohagi.

19. Qo'llar dezeritmada ishlov berilgandan keyin qanday bo'ladi?

- A.Steril;
- B.Dezinfeksiyalangan;
- C.Toza;
- D.Operasiya uchun tozalangan.

20. Jarrohlik brigadasini qo'llarini tayyorlash uchun qanday eritma ishlatilmaydi?

- A.0,5%li nashatir spirti;
- B.Pervomur eritmasi;
- C.*3%li xloramin eritmasi;
- D.0,5%li xlorgeksidin eritmasi.

21. Jarohatga infeksiyani tushishining ekzogen yo'li:

- A.Kariyesli tishlar orqali;
- B.*Tashqi muhitdan;
- C.Yallig'langan murtak bezlari orqali;
- D.Yallig'langan buyraklar orqali.

22. Jarohatga infeksiya tushishining endogen yo'li:

- A.Havo-tomchi;

- B. Kontakt-maishiy;
- C. Havo-chang;
- D. Limfogen yo'l bilan.

23. Operasion blokda havoni ekish qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

- A. 1 oyda 4 marta;
- B. 1 oyda 1 marta;
- C. 3 oyda 1 marta;
- D. 2 oyda 1 marta.

24. Paraformalinli kamerada endoskopik apparatlarni sterillash muddati:

- A. 6-12 soat;
- B. 2-6 soat;
- C. 24-48 soat;
- D. 12-20 soat.

25. Quruq issiqlik shkafida qanday tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish mumkin?

- A. Rezinadan;
- B. Tekstildan;
- C. Polimerlardan;
- D. Metallardan.

26. Sterilizatsiyadan oldin asboblarni yuvuvchi eritmaga qancha vaqtga solinadi?

- A. 5 daqiqa;
- B. *15 daqiqa;
- C. 45 daqiqa;
- D. 60 daqiqa.

27. Qaynatish orqali dezinfeksiyani davomiylik:

- A. 15 daqiqa;
- B. *15 daqiqa;
- C. 45 daqiqa;
- D. 60 daqiqa.

28. Asboblarni sterilizatsiyadan avvalgi sifat sinamasi nima deyiladi?

- A. *Azopiram sinamasi;
- B. Benzoy sinamasi;
- C. Dipiramid sinamasi;
- D. Nikotinamid sinamasi.

29. Operatsiya maydoniga ishlov berishda qo'llaniladigan preparat;

- A. *Xlorgeksidin biglyukonat;

- B. Vodorid peroksidi;
- C. Furasillin;
- D. Nashatir spirit.

30. Vaqt va sifat bo'yicha samarali bo'lgan qo'llarga operatsiyadan oldin ishlov berish usuli

- A. *Pervomur bilan;
- B. Spasokukoskiy – Kochergin bo'yicha;
- C. Alfeld bo'yicha;
- D. Fyurbringer bo'yicha.

31. Natriy xloridning gipertonik eritmasi qachon qo'llaniladi?

- A. *Jarohat va bo'shliqlarni drenajlash uchun;
- B. Jarohatga birlamchi ishlov berish uchun;
- C. Asboblarni sterillash uchun;
- D. Parvarish buyumlarini dezinfeksiya qilish uchun.

32. Operatsiyaadan oldin qo'llarga ishlov berganda uning sifatini aniqlash uchun nimalardan foydalaniladi?

- A. *Bakteriologik sinama;
- B. Termoinikatorlar;
- C. Fenolftalein sinamasi;
- D. Amidopirin sinamasi.

33. Filtrsiz yopiq steril biksni saqlash muddati qancha?

- A. *3 kun;
- B. 1 sutka;
- C. 20 sutka;
- D. 6 soat.

34. Ochiq biksning sterillik muddati qancha?

- A. *6 soat;
- B. 10 soat;
- C. 12 soat;
- D. 24 soat.

135. Bir marta ishlatiladigan sistemani ishlatilgan zahoti...

- A. *Dez.eritmaga solish kerak;
- B. Osha zahoti tashlab yuborish kerak;
- C. Bosh hamshiraga topshirish kerak;
- D. Oqar suvda yuvish kerak.

36. Qon guruhini aniqlagandan so'ng, ishlatilgan asbob-anjomlar qanday eritmada dezinfeksiya qilinadi?

- A. *3%li xloraminda;
- B. 0,5%li xlor ohagida;
- C. 1%li xloraminda;

D. 0,5%li SMS.

37. Anorganik birikmalarga nimalar kiradi?

- A. *Oksidlovchilar, galoidlar, og'ir metal tuzlari
- B. Spirtlar, aldegidlar, fenollar
- C. Nitrofuranelar, bo'yovchilar, organik kislotalar
- D. Karbollar, salitsilatlar, ammiaklar

38. Organik birikmalarga nimalar kiradi?

- A. *Spirtlar, aldegidlar, fenollar
- B. Oksidlovchilar, galoidlar, og'ir metal tuzlari
- C. Vodorod peroksidi, kaliy permanganat
- D. Lyugol eritmasi, yodoform, yodopiron

39. Galloidlarga kiradigan eritmalarini toping?

- A. *Yodoform, yodopiron, yodonat
- B. Sulema, kumush nitrat, ammiak eritmasi
- C. Lyugol eritmasi, etil spirti, lizol eritmasi
- D. Salitsilat, benzoat kislota, borat kislota

40. Quyidagilardan organik kislotalarni toping?

- A. *Salitsilat, benzoat kislota
- B. Borat kislota, sulema
- C. Furatsil, furadonin
- D. Formaldegid, lizoform

41. Nitrofuranelarga kiradigan preparatlarni toping?

- A. *Furazolidon, furadonin, furatsil
- B. Metilen ko'ki, brilliant yashili
- C. Yodopiron, yodonat, yodoform
- D. Ammiak eritmasi, benzoat kislota

42. Biologik antiseptika...bu?

- A. *Organizm himoya kuchlarini kuchaytirish, jarohatda mikroorganizmlar ko'payishini to'xtatish
- B. Jarohatdagi mikroblar florasini har xil kimyoviy moddalar yordamida yo'q qilish
- C. Yiringlagan jarohatni turundalar va drenajlar yordamida tashqariga oqizish
- D. Jarohatni birlamchi xirurgik tozalash

43. Biologik antiseptiklar jumlasiga nimalar kiradi?

- A. *Antibiotiklar, fermentlar, immun zardoblar
- B. Vitaminlar, narkotik analgetiklar, immun quvvatlovchilar
- C. Xlor preparatlari, antibiotiklar, vitaminlar
- D. Immun zardoblar, vaksinalar, og'riq qoldiruvchilar

44..Hozirgi paytda antibiotik ta'siri bo'lgan necha xil antibiotiklar mavjud?

- A. *2000 dan ko'p
- B. 200 dan ko'p
- C. 2240 dan ko'p
- D. 2200 dan ko'p

45.Penitsillin guruhiga qaysi preparatlar kiradi?

- A. *Metitsillin, Ampioks, Karbenitsillin
- B. Sefaloridin, Sefalekssin, Sefazalin
- C. Eritromitsin, Oleandomitsin, Seporin
- D. Levomitsin, Tetrasiklin, Vitotsiklin

46.Zamburug' kasalliklarga qarshi preparatlarni toping?

- A. *Nistatin, Levorin, Mikogeptin
- B. Gentamitsin, Ristomitsin, Fuzidin
- C. Kanamitsin, Rifamitsin, Ampitsillin
- D. Benzilpenitsillin, oleandomitsin

47.Enzimoterapiya nima?

- A. *Fermentlar bilan davolash
- B. Antibiotiklar bilan davolash
- C. Qon o'rnini bosuvchi suyuqlik quyish
- D. Vaksina bilan davolash

48. Maxsus zardoblar vaksina va antibiotiklar bemorlarning himoya kuchlarini oshirish antiseptikaning qaysi usuliga kiradi?

- A. *biologik
- B. kimyoviy
- C. mexanik
- D. fizikaviy

49. Jarohat atrofidagi o'lgan to'qimalarni kesib olib tashlash usuli antiseptikaning qaysi turiga kiradi?

- A. *mexanik
- B. biologik
- C. kimyoviy
- D. fizikaviy

50.Sterillash deb nimaga aytiladi?

- A. *Mikroblar va ularning sporalarini yo'qotish usuli
- B. Operatsiya jarohatiga tashqi muhitdan mikroblarni tushirmaslik
- C. Jarohatga tushadigan mikroblarni oldini olish
- D. Jarohatdagi mikroblarni kimyoviy dorilar yordamida yo'qotish

8-variant

1.Sterillashning necha xil usullari mavjud?

- A.*6 xil
- B.5 xil
- C.3 xil
- D.4 xil

2. Sterilizator bilan ishlaganda qanday texnik havfsizlikka rioya qilish kerak?

- A.*18 yoshdan katta bo'lgan ,maxsus kurslarni tamomlagan , rezina oyoq kiyim kiyish, toza kiyim kiyish.
- B.25 yoshdan katta bo'lgan ,maxsus kurslarni tamomlagan toza qo'lqop kiygan toza oyoq kiyim kiyish.
- C.18 yoshdan katta bo'lgan ,maxsus kurslarni tamomlagan bo'lishi shart bo'lmagan.
- D.18 yoshdan katta bo'lgan ,maxsus kurslarni tamomlagan , oyoq kiyim kiyish.

3.Egzogen yo'li bilan infeksiya tushishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A.*Kontakt yo'li, havo tomchilari yo'li , implantasion.
- B.Kontakt yo'li,tishning kariyesi,surunkali tonzilit.
- C.Tishning kariyesi, havo tomchilari yo'li bilan, eski chandiqsimon to'qimalar orqali.
- D.Surunkali tonzilit, implatatsion, kontakt yo'li.

4.Elektr statsionar qaynatgichning necha litr hajmli suv sig'adigan kamerasi bor?

- A.*30 litr.
- B.50 litr.
- C.20 litr.
- D.10 litr.

5.Infeksiya nima?

- A.*Mikro va makro organizmlar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro potologik jarayon.
- B.Tashqaridan tushgan mikroblarning jarohatda ko'payishi.
- C.Mikro va makro organizmlar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro biologik jarayon.
- D.Operatsiyadan keyingi davrda jarohatga to'liq aseptik bog'lov bo'lmagani uchun tushgan mikrob.

6.Yiringliinfeksiya necha haroratda o'ladi?

- A.*114°C.
- B.100°C.
- C.130°C.
- D.150°C.

7.“Antiseptika” tuchunchasiga ta’rif bering

- A.*Jarohatga tushgan mikroblarni sonini kamaytirish va ularni yo’qotish.
- B.Jarohatga tushgan mikroblarni oldini olish.
- C.Jarohatga tushgan mikroblarni yo’qotish.
- D.Jarohatga tushgan mikrobning sonini kamaytirish.

8.“Antiseptika”ning nechta turlari farqlanadi?

- A.*4.
- B.3.
- C.5.
- D.6.

9.Asosiy antiseptik vositalar necha guruhga bo’linadi va ular qaysilar?

- A.*4ta, antiseptik: kimyo-terapevtik, fizik, dezinfeksiyalovchi.
- B.2ta, antiseptik:kimyo-terapevtik.
- C.3 ta,antiseptik:kimyo-terapevtik,dezinfeksiyalovchi.
- D.1 ta, aralash antiseptika.

10.Qanday eritma bilan qisqa vaqt ichida qilinadigan operatsiyada qo’lga ishlov beriladi?

- A.Permovur eritmasi bilan.
- B.Serigel eritmasi bilan.
- C.0.5 %li nashatir spirti bilan.
- D.70 °C etil spirit bilan

11.Biksga material joylashuv usullari nechta va ular qaysilar?

- A.*3 ta : universal, xillab, maqsadga ko’ra.
- B.2 ta : universal,xillab.
- C.3 ta : universal, alohida, xillab.
- D.4 ta : maqsadga ko’ra, universal, alohida, xillab.

12.Eng katta bog’lov materiallarining o’lchovi.

- A.*40 sm x60sm.
- B.15sm x20sm.
- C.40 sm x50sm.
- D.120sm x 40sm.

13.Sterillikni nazorat qilishning nechta usuli mavjud?

- A.*4 ta.
- B.2 ta.
- C.3 ta.
- D.6 ta

14.Yiringli xirurgiyada asboblarni yuvishda qanday eritmadan foydalaniladi?

- A.Dezinfeksiyalovchi eritma.
- B.“A” eritma.
- C.“B”eritma.
- D.Xloramin eritmasi

14. Tarixda birinchi ishlatilgan narkotik moddalarning nomlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A.*Azot(I)-oksidi, efir, xloroform;
- B. Ftorotan, xloretil, siklopropan;
- C.Pentran, trixloretilen, venetren;
- D.Trilen, novokain, xloretil.

16. Mayda xirurgik muolaja uchun narkoz bosqichi?

- A.*analgeziya;
- B.qo'zg'alish;
- C.xirurgik;
- D.uyg'onish.

17. Narkoz moddalarini odam organizmiga yuborish yo'llariga ko'ra 2ga bo'linadi ular qaysilar?

- A.*ingalyatsion, noingalyatsion;
- B. noingalyatsion, peridural;
- C. vena ichi narkozi, to'g'ri ichak narkozi;
- D. ingalyatsion,infiltrativ.

18. Narkozning qaysi bosqichida jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi?

- A.*xirurgik uyqu bosqichida;
- B. uyg'onish bosqichida;
- C. qo'zg'alash bosqichida;
- D. analgeziya bosqichida.

19. Xirurgik uyqu bosqichining nechta darajasi farq qilinadi?

- A.*4ta;
- B.2ta;
- C.6ta;
- D.3ta.

20. Premedikatsiyani asosiy maqsadi qanday?

- A.*bemorni tinchlantirish, narkozni yaxshi o'tkazish
- B.bemorni tinchlantirish, uxlatuvchi dori moddalarni qo'llash
- C.bemorni tinchlantirish, dorilarni yaxshi ta'sir qilishi

D.narkozni yaxshi o'tkazish, organizmda kumulatsiya holatini oldini olish

21.Filonchikov- Grosix usuli bo'yicha bemorni operatsiyaga necha bosqichda tayyorlanadi?

- A.9 ta.
- B.10 ta.
- C.11 ta.
- D.1.**

22. Narkoz moddalarini odam organizmiga yuborish yo'llariga ko'ra 2ga bo'linadi, ular qaysilar?

- A.*Ingalyatsion,noingalyatsion.
- B.Noingalyatsion,peridural.
- C.Vena ichi narkozi,to'g'ri ichak narkozi.
- D.Ingalyatsion,infiltrativ.

23.Narkoz necha bosqichdan iborat bo'ladi ?

- A.*4ta bosqichdan
- B.2ta bosqichdan
- C.5ta bosqichdan
- D.6ta bosqichdan

24.Narkozning qaysi bosqichida jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi?

- A.*Xirurgik uyqu bosqichida
- B.Uyg'onish bosqichida
- C.Qo'zg'alash bosqichida
- D.Analgeziya bosqichida

24.Tuzilishidagi turli xil o'garishlarga qaramay hamma narkoz apparatlari 4ta asosiy blokdan iborat ular qaysilar?

- A.*Ballon - reduktor, bug'latuvchi va nafas sistemasi, dozimetr
- B.Dozimetr,reduktor,ballon,adaptor
- C.Ballon,naychalar,dazimetr,reduktor
- D.Reduktor,dazimetr,ballon,bosqoncha

25.Gazning qancha miqdorda sarflanishini ko'rsatuvchi asbob nima deyiladi?

- A.Dozimetr
- B.Ballon
- C.Bug'latgich
- D.Reduktor

26.Bemor atmosfera havosi o'rniga narkotik modda bilan birga kislorod bilan nafas oladigan usul qaysi usul?

- A.*Yarim ochiq usul

- B. Yarim yopiq usul
- C. Yopiq usul
- D. Ochiq usul

28. Qaysi qatorda gasimon narkotiok moddalar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Azot(1)oksidi, siklopropan, trilen
- B. Azot(1)oksidi, pentran, trilen
- C. Azot(1)oksidi, siklopropan, venetlen,
- D. Azot(1)oksidi, trilen, efir

29. Ingalyatsiyali narkozni qo'llanishga moneliklar 2ga bo'linadi va ular qaysilar?

- A. *Batamom, nisbiy moneliklar.
- B. Batamom, chala moneliklar.
- C. Nisbiy, vaqtinchalik moneliklar.
- D. batamom, vaqtinchalik moneliklar.

30. Premedikatsiyani asosiy maqsadi qanday?

- A. *Bemorni tinchlantirish, narkozni yaxshi o'tkazish.
- B. Bemorni tinchlantirish, uxlatuvchi dori moddalarni qo'llash
- C. Bemorni tinchlantirish, dorilarni yaxshi ta'sir qilishi,
- D. Narkozni yaxshi o'tkazish, organizmda kumulatsiya holatini oldini olish.

31. Narkotik uyquning chuqurligiga ko'ra narkoz qanday bo'lishi mumkin?

- A. *Yuzaki, chuqur.
- B. Aralash
- C. Chuqur, aralash,
- D. Yuzaki, sun'iy

32. Bug'latgichda suyuq narkotik modda nimaga aylanadi?

- A. *Gazga
- B. Azot (1)oksidiga
- C. Kislorodga
- D. Bug'ga

33. Ballondagi narkoz apparatiga berilayotgan gaz bosimini pasaytirish maqsadida qanday uskunadan foydalaniladi?

- A. *Reduktor
- B. Dozimetr
- C. Bug'latgich
- D. Ballon.

34. Xirurgik uyqu bosqichining nechta darajasi farq qilinadi?

- A. *4ta
- B. 2ta

- C. 6ta
- D. 3ta

35. Nafas a'zolarida yuz beradigan asoratlarning asosan qaysi narkozdan keyin uchraydi.

- A. *Efir
- B. Pentran
- C. Trilen.
- D. Siklopropan

36. Og'iz bo'shlig'ini anesteziyasida qanday preparat qo'llaniladi?

- A. *Lidokain;
- B. Xloroform;
- C. Efir;
- D. Xlorgeksidin.

37. Noingalayatsion narkozning qanday turlarini bilasiz?

- A. *Vena ichi, to'g'ri ichak ichi, neyroleptanalgeziya, elektr narkoz;
- B. Intubatsion, arteriya ichi, suyak ichi;
- C. Ingalyatsion, Bronx ichi;
- D. Teri ostiga, teri ichiga, vena ichiga, arteriya ichiga.

38. Noingalyatsion narkoz uchun keng ishlatiladigan preparatlar:

- A. *Geksenal, thiopental natriy, viadril, sombrevin;
- B. Xloretil, efir, azot(I)-oksidi;
- C. Novokain, sovkain, lidokain;
- D. Prednizolon, gidrokortizon.

39. G'ilofli anesteziya nimada qo'llaniladi?

- A. Barmoq operatsiyalarida;
- B. trepanatsiyada;
- C. traxeostomik trubka qo'yishda;
- D. appenditsitda.

40. Ingalyatsion narkoz tushunchasini aniqlang?

- A. *narkoz uchun modda nafas yo'llari orqali yuboriladigan umumiy narkoz turi;
- B. narkoz uchun modda vena orqali yuboriladigan umumiy narkoz turi;
- C. narkoz uchun modda to'g'ri ichak orqali yuboriladigan umumiy narkoz turi;
- D. narkoz uchun modda teri ostiga yuboriladigan umumiy narkoz turi.

41. Ingalyatsion narkozda qo'llaniladigan preparatni aniqlang?

- A. *azot (I) oksidi;
- B. Kalipsol;
- C. Sombrevin;
- D. Geksenal.

42. Tuzilishidagi turli xil o'garishlarga qaramay hamma narkoz apparatlari 4ta asosiy blokdan iborat ular qaysilar?

- A.*ballon, reduktor, bug'latuvchi va nafas sistemasi, dozimetr;
- B.dozimetr, reduktor, ballon, adaptor;
- C.ballon, naychalar, dozimetr, reduktor;
- D.reduktor, dozimetr, ballon, bosqoncha.

43. Suyak ichi anesteziyasi qanday anesteziyani bir turi hisoblanadi?

- A.*vena ichi aneasteziyasi;
- B.peridural anesteziya;
- C.g'ilofli anesteziya;
- D.infiltrativ anesteziya .

44. Teri ostida joylashgan yiringli soxani kesishda qanday anesteziya usulidan foydalaniladi?

- A.*muzlatish yo'li bilan anesteziya
- B.peridural anesteziya
- C.arteriya ichi aneasteziyasi;
- D.suyak ichi anesteziya

45. Bemor atmosfera havosi o'rniga narkotik modda bilan birga kislorod bilan nafas oladigan usul qaysi usul?

- A.*yarim ochiq usul
- B.yarim yopiq usul
- C.yopiq usul
- D.ochiq usul

46. Qaysi qatorda gasimon narkotiok moddalar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A.*a zot(1)oksidi, siklopropan, trilen
- B.azot(1)oksidi, pentran, trilen
- C.azot(1)oksidi, siklopropan, venetlen
- D.azot(1)oksidi, trilen,efir

47. Mahalliy anesteziyani qaysi turida anestetik modda subaraxnoidal bo'shliqqa yuboriladi?

- A.*orqa miya anesteziyasida
- B.Peridural anesteziyada
- C.O'tkazuvchi yo'llar anesteziyasida
- D.G'ilofli anesteziyada

48. Mahalliy anesteziyani qaysi turida anestetik modda to'qimalarga qavatma-qavat shimdiriladi?

- A.*Infiltratsion anesteziyada
- B.Orqa miya anesteziyasida
- C.Peridural anesteziyada

O'tkazuvchi yo'llar anesteziyasida

49. Quyidagi vositalardan qaysi biri mahalliy anesteziyada qo'llaniladi?

A.*Novokain

B.Geksenal

C.Kalipsol

D.Tiopental natriy

50. Bronxologiyada, otorinolaringologiyada qanday anesteziya usulidan foydalaniladi?

A.Surkash yo'li bilan anesteziyalash

B.Muzlatish yo'li bilan anesteziyalash

C.Peridural anesteziya

D.Vena ichi anesteziyalash

6.4.Yakuniy attestatsiya uchun amaliy ko'nikmalar:

1. Ko'krak qafasi jaroxatlarida birinchi yordam
2. Pnevmotoraksda ambulator yordam
3. Yopiq pnevmotoraksda ambulator yordam
4. Nazogastral zond orqali oziqlantrish
5. Me'dani zondlash
6. Sifon xuqna qilish
7. Esmarx jgutini ko'yish.
8. Siydik qopiga kateter qo'yish.
9. To'g'ri ichakni barmoq bilan tekshirish
10. Klapanli pnevmotoraksda ambulator yordam
11. «Yo'tal turtkisi» belgisini aniqlash
12. Teriga choklar qo'yish.
13. Teri choklarini olish
14. Venadan qon ketishda bosib turuvchi bog'lam qo'yish.
15. Nazogastral zond bilan me'dani yuvish
16. Bog'lamni almashtirish va operatsiyadan keyingi davrda bemorlar parvarishi.
17. "Chepets "bog'lamini qo'yish.
18. Ochiq jaroxatlarda birinchi yordam ko'rsatish.
- 19.Qo'llarga gigienik ishlov berish;
- 20.Arterial qon bosimini o'lchash;
- 21.Pulsni o'lchash
- 22.Nafas sonini sanash;
- 23.Tana haroratini o'lchash;
- 24.Ishlatilgan tibbiy asbob-anjomlarni birlamchi zararsizlantirish;

25.Mushak orasiga in'eksiya qilish.

26.Vena ichiga in'eksiya qilish

6.5.YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 1

Masala №1 Oshqozon yarasi tashxisi bilan operatsiya qilinayotgan bemorning terisi operatsiya vaqtida to'satdan oqarib, muzdek ter chiqda. PS- keskin tezlashib, Q/B keskin pasaya boshladi. Ko'p utmay PS ipsimon bo'lib, yurak urishi juda sekinlab qoldi.

1-Savol: Nima uchun bemorda bunday xolat yuz berdi?

2-Savol.Hamshira tashxisi.

3-Savol. Bemorga birinchi yordam ko'rsatish.

4-Savol.Qon ketishning qaysi turi bo'lishi mumkin.

5-Savol.Xamshira taktikasi.

Masala №2 Operatsiya uchun yumshoq bog'lov materiallari sterilizatsiyaga tayyorlab qo'yildi.

1-Savol. Materiallar sterilligini nazorat qilish uchun nimadan foydalanish mumkin?

2-Savol.Yumshoq bog'lamlarni yaxshi sterillanmaganligini kaerdan bilish mumkin?

3-Savol.Tibbiy instrumentlarni sterilizatsiya oldi tozalovini tekshirishda qanday sinamalar qo'llaniladi?

4-Savol.Azopiram sinamasi nima uchun qo'yiladi?

5-Savol.Fenoftalin sinamasi nima uchun qo'yiladi?

Variant № 2

Masala №1 Bemor uyiga tez yordam chaqirildi. Erkak 38 yoshda. Oshqozon va 12 b/ichak yara kasalligi bilan 7 yildan beri davolanib xirurg "D" hisobida turadi. Hozirgi shikoyati darmonsizlik, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi. Bugun 2 marta qusgan, qusiq massasi "kofe" rangida.

1-Savol. Hamshira tashxisi

2-Savol. Bemorga birinchi yordam ko'rsatish.

3-Savol.Qon ketishni qaysi turi bo'lishi mumkin.

4-Savol.Bemorni kaysi bo'limga gospitalizatsiya qilish kerak.

5-Savol.Qo'shimcha qanday tekshiruvlar qilish mumkin?

Masala №2 Bemor anamnezida yod preparatlariga reaksiyasi bor. Bemorlarni operatsiya qilish uchun operatsiya maydoniga yoddan boshqa qanday antiseptik preparatlar bilan ishlov berish mumkin?

1-Savol. Bemorlarni operatsiya qilish uchun operatsiya maydoniga yoddan boshqa qanday antiseptik preparatlar bilan ishlov berish mumkin?

- 2-Savol. Operatsiya maydoni deb nimaga aytiladi?
- 3-Savol. Operatsiya maydoni qachon tayyorlanadi?
- 4-Savol. Allergik reaksiya turlarini bilasizmi?
- 5-Savol. Anafilaktik shokda birinchi yordam ko'rsating?

Variant № 3

Masala № 1. Xirurgiya qabulxona bo'limiga 62 yoshli ayol o'ng qovurga tagida kuchli og'riq, ko'ngil aynishi, safro aralash qusishi va og'riqning yelka va chap kurakka berishidan shikoyat qilib keldi. Kasallik boshlanishini yog'li ovqat yeyishi bilan bog'laydi. t- 37,5⁰S. Bemor bir necha yildan beri surunkali xoletsistit tashxisi bilan davolanib keladi.

- 1-Savol: Bemordagi holat yuzasidan sizning fikringiz.
- 2-Savol. Hamshira tashxisi.
- 3-Savol. Qanday teshkirish usullarini o'tkazish kerak
- 4-Savol. Bemorga birinchi yordam ko'rsatish.
- 5-Savol. Xamshira taktikasi.

Masala №2. Qorin bo'shlig'idagi og'ir operatsiyadan so'ng bemorga qon quyish tavsiya qilindi. Shifokor nazorati ostida hamshira bemorga qon quya boshlab, bemor umumiy holatini nazorat qilib boradi. 30 daqiqatdan so'ng bemorning ahvoli birdan og'irlashib, lablari ko'kara boshladi. Q/B keskin pasayib, PS ipsimon bo'lib qoldi.

- 1-Savol. Sizning taxminiy tashxisingiz.
- 2-Savol. Shoshilinch yordam ko'rsatish.
- 3-Savol. Qon quyishga ko'rsatmalarni aytib bering?
- 4-Savol. Qon quyish usullarini ayting?
- 5-Savol. Qon quyishdan oldin qanday sinamlar o'tkaziladi.

Variant № 4

Masala № 1. 63 yoshli ayol qorinni yuqorisida bel aralashgan, kurakka uzatuvchi kuchli og'riq, ko'ngil aynishi, safro aralash qusish va isitmadan shikoyat qilyapti. Kasallik yog'liq ovqat yegandan keyin boshlangan. Ko'p yillar davomida surunkali xoletsistit bilan og'riydi. 2 kundan beri ahvoli og'irlashgan. Ob'ektiv ahvoli o'rtacha og'irlikda, harorati 37,5⁰S. Bemor semizligi II-darajada. Tili oq karash bog'lagan. qorin yumshoq chap qovurg'a ostida og'riqli, Shyotkin-Blyumberg simptomi musbat.

- 1-Savol. . Sizning taxminiy tashxisingiz.
- 2-Savol. Qanday teshkirish usullarini o'tkazish kerak.
- 3-Savol. Bemorga birinchi yordam ko'rsatish.
- 4-Savol. Xamshira taktikasi.
- 5-Savol. Bemorni kaysi bo'limga hospitalizatsiya qilish kerak.

Masala № 2 .Bemor Temirov M. 26 yosh. qishloq ho‘jalik ishi chog‘ida o‘ng boldir sohasining ochiq shikasti bilan shifoxonaga keltirildi. Ob‘ektiv ahvoli o‘rtacha, yurak maromi ritmik. AqB 120/80 sim.ust. Tomir urishi minutiga 78ta. O‘pkada vezikulyar nafas. Ovqat hazm qilish va siydik organlari tomonidan patologik o‘zgarishlar yo‘q. Hayotiy anamnezi tekis. Dori-darmonlarga, oziq-ovqatlarga allergik holatlar kuzatilmagan. Bemorga tegishli yordam ko‘rsatildi. Yakunida hamshiraga vrach tomonidan bemorga qoqsholga qarshi em dori kiritish aytiladi. Hamshira o‘z navbatida 1,0 ml gamma-globulin olib bemorning mushak orasiga kiritdi va bemorni bo‘limga chiqarib yubordi.

- 1-Savol. Hamshira to‘g‘ri ish bajardimi?
- 2-Savol. Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
- 3-Savol. Qanday qo‘shimcha teshkirish usullarini o‘tkazish kerak
- 4-Savol.Qoqshol qanday kasallik?
- 5-Savol.Bemorda allergik reaksiya bo‘lishi mumkinmi?

Variant № 5

Masala № 1. Shoshilinch tibbiy yordam qabulxonasidagi LOR kabineti hamshirasi ish yakunida ishlatilgan shpatellar va boshqa ko‘ruv jihozlarini oqar suvda obdon chayib oldi va sterilizatorga solib 40 minut qaynatdi, yakunida 70% spirtga solib qo‘ydi. Bu haqda mahsus daftarga qayd etib qo‘ydi.

- 1-Savol.Hamshira ishiga baho bering?
- 2-Savol.Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
- 3-Savol.San Pin 0317-15
- 4-Savol.Tibbiy asboblarni sterilizatsiyaga yuborishdan oldi qanday dezinfeksiya qilinadi.
- 5-Savol. San Pin 0317-15 bo‘yicha tibbiy chiqindilar nechta guruxga bo‘linadi.

Masala № 2. Bemor 66 yoshda, o‘ng kurak soxasiga uzatiluvchi o‘ng qovurg‘a ostidagi o‘tkir og‘riqdan, ko‘ngil aynishidan, qusishdan shikoyat kilyapti. Kechqurun yog‘lik ovqat iste‘mol qilgan. Avval bunday xolat kuzatilmagan. Ob‘ektiv ahvoli o‘rtacha og‘irlikda, isitmasi 38.8°, og‘riq va ko‘ngil aynishi sababli, o‘ta bezovta, to‘lg‘onyapti. Bemorda semizlikning I darajasi aniqlanadi, ko‘z sklerasi sarg‘ishroq, tili oq-sarg‘ish karash qoplagan, qorni dam.

- 1-Savol. Bemordagi holat yuzasidan sizning fikringiz.
- 2-Savol .Qanday qo‘shimcha teshkirish usullarini o‘tkazish kerak.
- 3-Savol Qanday shoshilinch yordamni tashkillaysiz.
- 4-Savol.Xolitsistoektomiyaga ko‘rsatmalarni aytib bering?
- 5-Savol.Bemorni qaysi bo‘limga gospitalizatsiya qilish kerak?

Variant № 6

Masala № 1. Bemor 48 yoshda. Belda va qorinning o'ng yarmida chov sohasiga va o'ng songa uzatiluvchi kuchli og'riqdan va tez-tez, oz-oz siyishdan shikoyat qiladi. Ob'ektiv ahvoli o'rtacha og'irlikda. Isitma 37.6° bezovtalangan va og'riqni yengillashtirish uchun chap tomonlama majburiy xolatni olgan xolda yotipdi. Lekin og'riq pasaymayapdi. Pul'si 86ta ritmik. AqB 140/80 mm. sm.ustun. Pasternatskiy simptomi o'ng tomonda musbat.

- 1-Savol Bemordagi qanday jarayon ro'y berayapdi.
- 2-Savol.Qanday qo'shimcha teshkirish usllarini o'tkazish kerak.
- 3-Savol.Qanday shoshilinch yordamni tashkillaysiz.
- 4-Savol. Sizning taxminiy tashxisingiz.
- 5-Savol.Qanday buyrak kasalliklarini bilasiz?

Masala № 2 .Qish mavsumi. Bo'sh paytdan unumli foydalanish maqsadida LOR kabineti hamshirasi general tozalov o'tkazishga kirishdi. U 2ta paqir olib birinchi paqirga tarkibida xlor saqllovchi 0,5% li zararsizlantiruvchi eritma quydi unga 50 gr. oddiy kir sovun qo'shdi. Ikkinchi paqirga toza suv oldi. Avval lattani birinchi paqirda ivitib olib, yengil siqib tashladi va xona devorini bo'yi yetguncha balandlikda artib chiqdi. Keyin o'sha latta bilan xona jihozlarini artib chiqdi. Artish orasida lattani toza suvli paqirda chayib oldi. Tozalov yakunida bajargan ishini daftarga qayd etib qo'ydi.

- 1-Savol. Hamshira to'g'ri ish bajardimi?
- 2-Savol.Siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
- 3-Savol.SanPin 0342 bo'yicha mukammal tozalov tartibini aytib bering?
- 4-Savol. SanPin 0342 Joriy tozalov taritibini ayting?
- 5-Savol. SanPin 0342 bo'yicha mukammal tozalov qanchada o'tkaziladi.

Variant № 7

Masala № 1. 37 yoshli erkak. 7 yildan buyon, meda yarasi bilan og'riydi. Shikoyatlari: bosh aylanishi, bo'shashish, ko'ngil aynishi, bugun 3 marta «kofe quyqasi»ga o'xshash qusgan. Ko'rik paytida terisi oqargan, pulsi 100 ta, AqB 90/60 mm. sm. ustun. qorni sal shishgan. Oshqozon sohasida palpator og'riqli.

- 1-Savol Bemorda qanday holat kechayapdi?
- 2-Savol.Qo'shimcha tekshirish usullarini o'tkazish shartmi?
- 3-Savol Shoshilinch yordam nimalardan iborat?
- 4-Savol.Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.
- 5-Savol.Bemorda qon ketishni qaysi turi kuzatilyapti?

Masala № 2. 20 yoshli ayol antibiotik olgach, 30 minutdan keyin nafas olishi qiyinlashishi, bo'shashish, ko'ngil aynishi, isitmaning 38° ga ko'tarilishi va yuzida taranglashgan tortishuvchi shish paydo bo'lganidan shikoyat qiladi. Ko'rilganda yuzda sezilarli shish bor, oqarinqiragan ko'zlari yarim qisiq, ovozi xirillagan, tili

shishgan, gapirishi qiyin, quloq supralari shishgan, bezovta, tomir urishi minutiga 110ta, AqB 110|60 mm. sm. ustuniga teng. Oshqozon sohasi palpator og'riqsiz.

- 1-Savol .Bu qanday holat?
- 2-Savol.Qo'shimcha tekshirish usullarini o'tkazish shartmi?
- 3-Savol.Shoshilinch yordamni qanday tashkillaysiz?
- 4-Savol.Allergik reaksiyaning yana qanday turlarini bilasiz?
- 5-Savol. Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.

Variant № 8

Masala № 1 .67 yoshli ayolni mashina urib yubordi. Shikoyati: o'ng chanoq-son bo'g'imida og'riq va shu yerda shish, o'ng oyoqni qimirlata olmaslikka. Ko'rilganda o'ng oyog'i chap oyog'idan 6 sm kalta, deformatsiyalangan, palpator krepatatsiya aniqlandi. O'ng oyoq ichkariga buralgan, «yopishgan» tovon simptomi mavjud.

- 1-Savol.Sizning xulosangiz?
- 2-Savol.Qanday qo'shimcha tekshirish usullarini o'tkazish lozim?
- 3-Savol.Shoshilinch yordam nimadan iborat?
- 4-Savol.Sinishlar klinikasi va turlari xaqida gapiring.
- 5-Savol.Bemorda sinishning qaysi turi kuzatilyapti?

Masala № 2 .Qabulxonaga bog'cha tarbiyachisi 6 yoshli bolani olib keldi. Uning aytishicha yarim soat oldin bola zinadan boshi bilan yiqilib tushgan. Bola boshning qattiq og'rishi, bosh aylanishiga shikoyat qilgan. Ko'ngli aynib 1 marta qusgan. Ko'rik paytida bemorning umumiy ahvoli nisbatan qoniqarli. Boshi og'rishiga shikoyat qilayapdi. Boshning o'ng tepa sohasida 3x3 sm.li g'urra aniqlandi.

- 1-Savol.Sizning taktikangiz?
- 2-Savol.Shoshilinch yordam zarurmi?
- 3-Savol.Bolada qanday shikast turi kechyapti?
- 4-Savol.Qo'shimcha qanday tekshiruvlar o'tkazish kerak?
- 5-Savol.Bemorni hospitalizatsiya qilish zarur bo'lsa qaysi bo'limga yotkiziladi.

Variant № 9

Masala № 1 .Bemor 72 yoshda. Qorning barcha sohasidagi og'riqdan, qorin shishuvidan, gaz va axlat ajralmaslikdan, safro aralash qusishdan shikoyat qilyapti. Anamnezida o'tgan 5 yil ichida 12 barmoq ichak yara kasalligi va o'tkir appenditsit bilan operatsiya o'tkazilgan. Ko'rik paytida teri rangi oqargan, yurak qisqarishi ritmik, pulsi 68 ta, AqB 130|100mm.sm.ustuniga teng. qorin shishgan, palpatsiyada qorinning barcha sohasi og'riqli. Ichak peristaltikasi pasaygan.

- 1-Savol.Sizning xulosangiz.
- 2-Savol.Qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazilishi shartmi?
- 3-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 4-Savol. Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.
- 5-Savol. Bemorni qaysi bo'limga gospitalizatsiya qilish kerak?

Masala № 2 .Bemor 88 yoshda. Ulug' Vatan urushida qatnashchisi. Siydik ajralmasligi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, bo'shashish va qorinni pastida og'riqdan shikoyat qilyapti. Ko'rilganda teri rangi oq sarg'ish, yurak tonlari bo'g'iq, ritmik puls 100 ta, AqB-140/90 mm.sm.ust. teng. Bemor qattiq kuchanganda tomchilab siydik ajralmoqda.

- 1-Savol.Sizning tashxisingiz?.
- 2-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 3-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 4-Savol. Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.
- 5-Savol. Bemorni qaysi bo'limga gospitalizatsiya qilish kerak

Variant № 10

Masala № 1 .Bemor Xatamov X. 11 yoshda qorinda xurujsimon, mijg'uvchi og'riqqa shikoyat qilib keladi. Og'riqlar 10-12 soat avval yuzaga kelgan, ko'ngil aynishi va qayt qilishi kuzatilmagan. Kasalligini ko'p miqdorda qaynatilgan makkajo'xori iste'mol qilish bilan bog'laydi. Ob'ektiv ko'rilgan ahvoli o'rtacha og'irlikda, teri rangi oqargan. qorin dam, biroz taranglashgan va o'ng yonbosh sohasida keskin og'riqli va o'sha joyda diametri 10 sm ga yaqin bo'lgan elastik konsistensiyali xosila paypaslanyapti. Rektal tekshirishda qo'lqopda qizil tusli qon aniqlandi.

- 1-Savol.Bemor ahvoliga baho bering.
- 2-Savol.Tashxis qo'ying va 1-yordam ko'rsating.
- 3-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 4-Savol. Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.
- 5-Savol. Bemorni qaysi bo'limga gospitalizatsiya qilish kerak?

Masala № 2 Bemor G'anieva G. 18 yoshda butun qorinda og'riq bo'lishiga shikoyat qilyapti. Og'riq ikki soatcha avval epigastral sohada boshlangan. Bir marta qayt qildi. Tana harorati 38,3⁰S. Ichi bir marta suyuq keldi. Najasda patologik aralashmalar yo'q.

- 1-Savol.Sizning tashxisingiz?.
- 2-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 3-Savol.Shoshilinch yordam qanday tashkillanadi?
- 4-Savol. Bemorni qaysi vrach ko'ruviga yo'naltirasiz.
- 5-Savol. Bemorni qaysi bo'limga gospitalizatsiya qilish kerak?

O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish
Respublika Markazi Andijon filiali xirurgiya fani o'qituvchisi G.I.Sodiqovanning
«Zamonaviy jarroxlikda xamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish
guruhlari uchun tuzgan ishchi o'quv dasturiga

Taqriz.

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi «Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi» buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli «O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari» ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ishchi dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Ishchi dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. «Zamonaviy jarroxlikda xamshiralik ishi» ishchi o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

Mazkur ishchi dasturni o'zlashtirishga tavsiya etilgan soatlar hajmi jami: 144 soatdan iborat bo'lib, bundan 104 soati mutaxassislik faniga, undan 44soati nazariy va 60 soati amaliy darslarga ajratilgan. Ishchi o'quv dastur o'rta tibbiyot xodimlari o'z xohishi bilan bilimini kengaytirish maqsadida mustaqil o'zlashtirilishi (yoki mustaqil kurs sifatida) uchun qo'llanishi mumkin.

ADTI Urologiya kafedrası dotsenti:



O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish
Respublika Markazi Andijon filiali xirurgiya fani o'qituvchisi G.I.Sodiqovanning
«Zamonaviy jarrohlikda xamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish
guruhlari uchun tuzgan ishchi o'quv dasturiga

Taqriz.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Ishchi dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi dasturi "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlari (jarrohlik bo'limi hamshiralari)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan.

O'qish natijasida "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" bo'yicha jarrohlik bo'limi hamshirasining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarni operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlarda parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, aholiga sifatli va malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni chuqurlashtirish va yangilash. Shu bilan bir qatorda ularga jarrohlik ishining mohiyati, normativ- xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli xirurgik yordamni ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

ADTI Urologiya kafedrası as'sistenti:

